



MUSIQA SAN'ATINING INSON HAYOTIDAGI O'RNI VA UNING MAZMUN MOHIYATI

Qudratullayeva Ehtiromxon

*O'zDSMIFMF "Xalq ijodiyoti" Professional:
ta'lim cholg'u ijrochiligi 3-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: Rafiqjon Ahmedov
O'zDSMIFMF kata o'qituvchisi*

Annotatsiya: Musiqaning sirli dunyosiga kirgan inson, uning misilsiz ummon ekanligini anglashi muqarrardir. Ushbu maqolada musiqani inson hayotidagi o'rni beqiyos ekanligi va qadimdan rivojlanib insoniyatning qon tomiriga singib ketganligi haqida ma'limot berilgan.

Kalit so'zlar: Inson, ibridoiy, Arxeologik, Cholg'u, Yunon, Rassomchilik, Memorchilik, Haykaltaroshlik, dizaynerlik, Vositachilik, Publisistik, Puflama sozlar, cholg'ular, tafakkur, Nafosat.

Inson hayoti davomida ko'p narsalarga ehtiyoj sezadi. Deylik kundalik sharoitdagi ehtiyojlar. U aqliy mehnat bilan shug'ullanishi, dam olib xordiq chiqarishi, oddatiy uch mahallik tamaddi qilishi, aqliy salohiyatini, ma'naviyatini chiniqtirishda va boyitishda ko'proq o'qishi va boshqalar kundalik ehtiyojlar hisoblanadi. Shu jumladan insonning yana bir qirrali tomoni shundaki, bu uning ruhiy holati ya'ni ruhiy tomoni hisoblanadi. Ruhiyat insonning ko'pgina imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda va o'ziga bo'lган ishonchini ta'minlashida eng asosiy poydevor hisoblanadi. Insonning barcha muhum his tuyg'ulari ruhiyati asosida yuzaga keladi. Ruhiyatning ozuqasi esa bevosita musiqa hisoblanadi.

Musiqa yunoncha - ilhom parilari san'ati deyiladi. Darhaqiqat musiqa - san'at turlaridan biridir. Rassomchilik, memorchilik, haykaltaroshlik, teatir, dizaynerlik va boshqa san'at turlari bilan bir qatorda musiqa inson hayotida juda kotta o'rin egallagan. Musiqa san'ati asarlari bizga ma'naviy boylik hisoblanadi. U insonlar hayoti davomida hamroh bo'la oladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Musiqa insonga estetik zavq beradi, ma'naviy ozuqa beradi, estetik didni tarbiyalaydi va musiqa sadolari ostida mehnat unumli bo'ladi, musiqa bilan olingan dam maroqli bo'ladi. To'y- tomoshalar, bayramlar, marosimlar, kottayu- kichik tadbirlarni musiqasiz tassavur qilib bo'lmaydi.

Musiqa san'ati qachon va qayerda paydo bo'lgan? Bu savolga javob berish uchun insoniyatning uzoq o'tmishiga ya'qadimiylar tarixiga bir nazar tashlasak. Musiqa san'ati juda qadimda paydo bo'lgan. Ma'lum bo'ladiki boshqa san'at turlari jumladan raqis, rassomlik va boshqalar kabi musiqa san'atining rivojlanishi asta sekinlik bilan paydo bo'la boshlagan. Ibtidoiy jamoa o'zligini anglashi uchun



musiqa juda kotta ahamiyat kasp etgan. Chunki musiqa vositasidauning mashaqqatli mehnati bilan to’plagan qimmatli tajribalari yotadi. Ibtidoiy hayot tuzimi insoniyat tarixida uzoq iz qoldirdi. Arxeologik olimlar bergen ma’limotlarga qaraganda, musiqa madaniyati ibtidoiy odam tomonidan turli xil rasimlar tarzida qoya toshlarda aks ettirilgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yashagan odamlar tabiatdagi musiqiy va shovqinli tovushlarni ajrata olganlar. Dastlabgi cholg’ularni yaratganlar va o‘zлari ijro qila boshlaganlar. Bu jarayonda musiqa ibtidoiy jamoaning har kungi turmish tarsi bilan bog’liq bo’lgan.

Musiqa, asosan, odamlardi birlashtirish, ularni umummehnatga chorlashga qaratilgan edi. Masalan, jamoadagi erkaklarning turli xil balandliklarga ega jangovor ovozi, hayqiriqlari, ov jarayonida hayvonlarni qopqonga trshurishda ulkan vosiya bo’lib hizmat qilgan bo’lsa, qushlarni kuylashiga o’hshagan xush ohangli xushtak chalishlar ovchilarga yovvoyi qushlarni tutishda yordam bergen. Musiqaning bunday o’ziga xos “ Vositachilik ” sifati keyinchalik yer bilan ishslash jarayoni ya’ni dehqonchilikda mehnat qo’shiqlari yaratishiga asos bo’ldi. Hozirda bu qo’shiqlar halq og’zaki ijodi deb nom olgan. Mehnat qo’shiqlari tildan tilga o’tib rivojlanib, sayqallanib kelmoqda.

Ibtidoiy odamlar musiqa san’atini g’ayritabiyy kuchlar boshqaradi deb o’ylaganlar. Shu sababdan musiqani yomon, yovuz kuchlardan muhofaza qiadigan, boshlagan ishga esa omad keltiradigan omil sifatida e’zozlanganlar. Misol uchun, hayvonlari o’z tomonlariga og’dirish uchun hayvon terisini yopinib qo’shiq aytganlar yoki hayvonlarga taqlid qilib raqisga tushganlar. Hayvon bilan jamg qilayotgan, hayvon terisidan yasalgan qo’g’irchoqqa yoy otishayotgan pantamimani tasvirlab o’zlariga ovda muvaffaqiyat keltiradi dib o’ylaganlar. U davrda musiqa, raqis, pantamima va muqaddas marosimlarning barchasi bo’linmas sinkretik birlikda edi. Bu yerdagi o‘yinlar mazmun mohiyati qatnashchilarga xursandchilik bag’ishlagan bo’lsada, keyinchalik estetikaning boshlanishiga olib kelgan. San’atning shakillanishi taxminan mana shunday boshlangan. Musiqaning boshlang’ich shakli ovozda hayqirish tovushlarni tartibli kuyga solish bilan bog’liqdir. Insonning o’z ovozini egallash va boshqarish jarayoni esa juda uzoq ba davomli kechgan. Bunda tartibsiz xayotiy ohang tovushlardan asta – sekin muayyan ma’noli kuylarga o’tilgan. Kuylar aniq balandlikka ega tovushlar asosida chalinga. Cholg’u musiqasi keyinroq paydo bo’lga. Insonning tobora rivojlanib borayotgan ish faoliyatini yangi mehnat qurollari bilan birga mukammal musiqa cholg’ulari ham paydo bo’la boshlagan. Dastlabkin cholg’u sifatida urma – zarblilar e’tirof qilingan. Bunda qadimgi dunyo odamlari o’zlarini o’rab turgan narsalar – tosh plitalari va hatto hayvonlarsuyagidan ham foydalanganlar. Keyinchalik qamish va fil suyagidan taylorlangan puflama sozlar paydo bo’lgan Va, nihoyat torli cholg’ular ham yuzaga kelgan.

Cholg’ularning qanchalik rivojlanishiga qaramay eng birinchi o’rinda qo’shyiq ya’ni ovozda kuylash muhim ahamiyatga ega bo’lgan. Chunku aynan shu asosda



musiqa tilining tarkibiy unsurlari ilk bor sinovdan o'tkazilib, muhim sifatlari doimiy qo'llash uchun ongli tanlab olingan. Endilikda tartibsizlik va tasodifiylik o'rnini hamjihatlik va tartiblik egallay boshlagan. Shu tarzda turli xil aytim janirlari shakillangan. Qadimgi davir jamoalari orasida eng qadirli bo'lgan qo'shiqlar og'zaki ravishda avloddan - avlodga ma'naviy meros o'tib, bizning davrga qadar yetib keldi. Demak musiqa uzoq va qadim o'tmishdan inson hayotida eng muhim omil hisoblanib kelgan ekan va hozirda musiqaga bo'lgan ehtiyoj undanda ko'proq zarurat tug'iloytGANI hammamizga sir emas albatta.

Musiqa san'ati – nafosat tarbiyasining muhim omili bo'lib, yosh avlodni kamolotga yetishishi uchun ta'sir etuvchi jarayon. Bu jarayon bolalarda yoshlikdan rivojlanadi va yosh avlodning ichki dunyosini boyitib, butun hayot mobaynida unga hamroh bo'lib boradi. Musiqiy nafosat tarbiyasining asosi – ona allasidan boshlanadi. Onalarimiz mungli va bolasiga atalgan niyatlarini, ezgu orzu umidlarini va niyatlarini manashu allada kuylaydi. Ba'zi bolakaylar onasiga jo'r bo'lib ham qo'yadi. Bola qalbiga musiqa manashunday kirib boradi va bu boladan yomonlik chiqmaydi. Demak insonlar hayotida musiqa onalarimiz allasidan boshlanadi. Musiqa inson ruhiyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Musiqadan ozuqa olgan odam yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go'zallikni his eta oladigan, kasbiga, vataniga mexr qo'ygan bo'ladi.

Musiqa inson hayotida nima uchun kerak? Musiqa va qo'shiq dilimizga bahra beradi, qalbimizga quvonch baxsh etadi. Musiqa ohanglarini tinglash, qo'shiqlarni yoqimli, xushovozda kuylab, musiqiy tafakkurimiz oshadi. Musiqa insonni sehirli ohanglar dunyosiga boshlaydi, nozik didli qilib go'zallikni sevishga o'rgatadi. U inson hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Musiqa hayotimizda keng o'rIN tutgan, inson shahsiyatini rivojlanishidagi huhim ahamiyatga ega bo'lgan san'at turidir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. A. Jabborov, S. Begmatov, M. Azamova "O'zbek musiqa tarixi" Toshkent 2018-yil.
2. Ibrohimov O.A., Xudoyev G'. M. "Musiqa tarixi" Toshkent 2018-yil.
3. Gulnora Sharipova "Musiqa va uni o'qitish metodikasi" Toshkent 2019-yil.